

SHAXS TUSHUNCHASI HAQIDA MULOHAZALAR

Inomiddinova Durdona Ulug'bek qizi

Andijon davlat pedagogika instituti, "pedagogika" fakulteti

"Boshlang'ich ta'lim" yo'nalishi 1-bosqich talabasi.

Email: inomiddinovadurdona3@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada shaxsning tabiiylik va ijtimoiylik masalasiga boshqacha yondashishi, biologik tuzilishi, ijtimoiy munosabatlari, irodaviy zo'r berish tashqi ta'sirlarga beriluvchanlik, biologik tuzilishi, taassurotlar va kechinmalarga bo'lgan munosabatlari hamda o'zini faollashtirish haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Аннотация: В данной статье говорится о различном подходе человека к вопросу естественности и социальности, биологической структуры, социальных отношений, восприимчивости к внешним воздействиям, биологической структуры, отношения к впечатлениям и переживаниям, самоактивации.

Abstract: This article talks about a person's different approach to the issue of naturalness and sociality, biological structure, social relations, susceptibility to external influences, biological structure, relations to impressions and experiences, self-activation.

Kalit so'zlar: Shaxs, individ, shartsiz reflekslar, ijtimoiy munosabatlar, jamiyat, subyekt shaxs, individuallik, xotira, amaliy faoliyat, sezuvchanlik.

Kirish: "Shaxs" tushunchasi psixologiyada eng ko'p qo'llaniladigan tushunchalar sirasiga kiradi. Psixologiya o'rganadigan barcha tarmoqlar aynan shu tushuncha atrofida qayd etiladi. Inson psixologiyasi bilan qiziqqan har qanday olim yoki tadqiqotchi shaxsning jamiyat bilan aloqasini chetlab o'tolmagan. Abu Nasr Farobiy, A.Navoiy, Ibn Sino, Beruniy kabi yuzlab sharq allomalari ham bu o'zaro bog'liqlikning falsafiy va ijtimoiy sirlarini ochishga o'zlarining eng durdona asarlarini bag'lashlagan. Har bir odam konkret shaxs sifatida odamlar qurshovida yashaydi, ma'lum guruh yoki jamoa qurshovida bo'ladi. Guruh va jamoalar doim o'zgarib turadi. Shaxs esa ana shu o'zgarishlarga moslashib, shu guruhdagi murakkab munosabatlarga kirishishi kerak. Shaxs ijtimoiy mavjudot bo'lib odamlardan alohida yashay olmaydi. Odam bolasi individ sifatida dunyoga keladi, o'z hayotini davom ettirish uchun tug'ma, shartsiz reflekslarga, nerv sistemasining tiplariga ega bo'ladi. Keyinchalik shu reflekslar asosida ma'lum munosabatlarga kirisha boshlaydi. Biz katta yoshdagi odamni ham chaqaloqni ham, tilni va oddiy¹ malakani egallay olmaydigan telbani ham

1. Safayev N.S., Mirashirova N.A., Odilova N.G. "Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti": – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2013.

individ deymiz. Individ qachonki jamiyatga foydasi tegadigan bo'lib, odamlar bilan ongli munosabatdabo'lgandagina shaxs bo'la oladi. Shaxs-ijtimoiy munosabatlar yig'indisidir. Odam bolasi tugallashdan ma'lum biologik belgilarga ega bo'lib, u ijtimoiy tajriba ortirishi jarayonida shaxs bo'lib shakllana boshlaydi.

Shaxs - ma'lum jamiyatning a'zosi bo'lib, shu jamiyat a'zolari bilan ijtimoiy munosabatlarga kirishadigan konkret insondir. Demak, kelib chiqishi jihatidan ijtimoiy, o'z e'tiqodiga, qarashlariga, munosabatlariga, baholariga ega subyekt shaxs hisoblanar ekan. Shunday qilib, odam ijtimoiy jamiyatda, konkret odamlar bilan ijtimoiy munosabatlar jarayonida shaxs sifatida tarkib topa boshlaydi. Har bir kishining shaxsi uning individualligini vujudga keltiradigan hislatlar va fazilatlar birikuvidan tarkib topadi. Individuallik- kishining o'ziga hosligini, uning boshqa odamlardan farqini aks ettiruvchi psixologik fazilatlar birikmasidir. Individuallik temperament va harakter xususiyatlarida, odatlarda, ustun darajadagi qiziqishlarda bilish jarayonlariga oid fazilatlar (idrok, xotira, tafakkur, tasavvurlarda, qobiliyatlarda, faoliyatning shaxsga hos uslubida va hokazolarda namoyon bo'ladi. Zikr etilgan psixologik xususiyatlarning bir xildagi birikmasini o'zida mujassamlashtirgan odam yo'q, inson shaxsi o'z individualligi jihatidan betakrordir. Odam dunyoga odam bo'lib keladi. Bu ta'kid yuzaki qaragandagina isbot talab qilmaydigan haqiqat bo'lib va takrorlanaverib siyqasi chiqib ketgan tuyiladi. Gap shundaki, bu o'rinda xususan insoniy belgilar va fazilatlarining rivojlanishi uchun tabiiy shart-sharoitlar paydo bo'lishi genetik jihatdan oldindan belgilab qo'yilganligi ta'kidlanadi. Dunyoga kelayotgan chaqaloqning gavda tuzilishi unda tik yurish uchun imkoniyatning mavjudligini taqozo etsa, miyasining tuzilishi aqli-xushining rivojlanishi uchun imkoniyat tug'diradi, qo'llarining shakl-shamoyili mehnat quollaridan foydalanish istiqbolining mavjudligini ko'rsatadi va hokazo. Bu xildagi fazilatlar yig'indisining soxibiga aylana olmaydigan hayvon bolasidan farq qiladi. Shunday qilib, yuqorida aytilganlar orqali chaqaloqning inson zotiga mansubligi tasdiqlanadi va faqat individ tushunchasida qayd etiladi (bundan farqli ularoq, hayvon bolasi dunyoga kelishi bilanoq va hayotning oxiriga qadar jonzot deb yuritiladi). "Individ" tushunchasida kishining nasl-nasabi ham mujassamlashgandir. Psixologiyada individ tomonidan amaliy faoliyat va munosabat jarayonida xosil qilinadigan hamda ijtimoiy munosabatlarning individga ta'sir o'tkazish darajasi va sifatini belgilaydigan sistemali tarzdagi sosial fazilat shaxs tushunchasi bilan ifoda etiladi. Individning alohida sosial fazilati sifatidagi shaxsning o'zi nima? Eng avvalo, agar biz shaxs individning fazilati ekanligini tan oladigan bo'lsak, bu bilan biz individ va shaxsning birligini tasdiqlagan va ayni paytda bu

2. Xaydarov F.I., Xalilova N. "Umumiy psixologiya". T.: "an va texnologiyalar" markazining bosmaxonasi : 2009.

tushunchalarning bir-biriga o'xshashligini inkor etgan bo'lamiz (misol uchun, yorug'likni sezuvchanlik fotoplenkaning xususiyati xisoblanadi, lekin fotoplenka-bu yorug'likni sezuvchanlik, yoki yorug'likni sezuvchanlik-bu fotoplenka degan ma'noni anglatmaydi).

"Shaxs va individ" tushunchalarining bir-biriga o'xshashligini barcha yetakchi sovet psixologlari - B.G.Ananyev, A.N.Leontyev, B.F.Lomov, S.L.Rubinshteyn vaboshqalar inkor etishadi. Individuallik bilan shaxsning tuzilishi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik. "Shaxs va individuallik" tushunchalari qanchalik darajada birlikdan iborat bo'lganiga qaramay, bir-biriga mos kelmasligining o'zi ham shaxsning tuzilishini kishining individual-psixologik ishlatlari va fazilatlaridan tarkib topadigan allaqanday shakl sifatida tasavvur qilish imkoniyatini bermaydi. Psixologiyada ikkita omil - biologik va ijtimoiy omillar ta'sirida shakllangan ikki asosiy kichik struktura borligi ta'kidlanadi. Inson shaxsining o'zi "endopsixik va ekzopsixik" tuzilishga bo'linadi. Endopsixika- ichki psixik holatdir. Biologik jihat bilan bog'liq bo'lib, kishining nerv psixik tuzilishiga o'xshash inson shaxsining ichki mexanizmlari kabi psixik qismlar va funksiyalarning o'zaro ichki bog'liqligini ifodalaydi. Endopsixika moyillik, xotira, tafakkur va hayol xususiyatlari, irodaviy zo'r berish tashqi ta'sirlarga beriluvchanlik kabi boshqa hislatlarni o'z ichiga oladi. Ekzopsixika - tashqi psixik holat bo'lib, ijtimoiy omil bilan belgilanib, kishi munosabatlarning tashqi sistemasini va uning tajribasining, ya'ni, qiziqishlarini,² moyilliklarini, ideallarini, ustun darajadagi his-tuyg'ularini, shakllangan bilimlari va boshqa belgilarni o'z ichiga oladi. Biologik xususiyat kishi shaxsining tarkibiga singib, ijtimoiy omilga aylanib qoladi va keyinchalik ijtimoiy shaklda mavjud bo'ladi. "Shaxs" va "individuallik" tushunchalari (xuddi "individ" va "shaxs" tushunchalari singari) aynan bir-biriga o'xshaydi, deb tan olinadigan va shaxsga tabiat ijtimoiy munosabatlar sub'yekti sifatida, individning sistemasini tarzidagi sosial fazilat sifatida qaraladigan G'arb psixologiya fanining nomarksistik yo'nalishlarida shaxs bilan individuallikning strukturasi (ya'ni tuzilishi, tashkil topishi) bir-biriga tamomila mosligi tan olinadi. Bunday psixologik maktablar va yo'nalishlarning vakillari individuallikning tuzilishi aniq ta'riflab berilsa bas, bu kishining shaxsini to'laligicha o'z ichiga oladi va ta'riflab beradi, degan nuqtai nazarni ilgari surishadi. Jumladan, psixologlar maxsus shaxsiy so'roqnomalarni qo'llashadi (bo'lar sinaluvchining o'ziga o'zining individual-shaxsiy fazilatlariga o'zi baho berishini taklif etadigan savollardan tashkil topgan o'ziga xos anketalardir). Ulardagi

3. Safayev N.S., Mirashirova N.A., Odilova N.G. "Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti":– T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2013.

4. Xaydarov F.I., Xalilova N. "Umumiy psixologiya". T.: "an va texnologiyalar" markazining bosmaxonasi : 2009.

javoblar mazmunini tahlil qilgan va so‘roq natijalarini matematik amallar vositasida qayta ishlagan holda tadqiqotchi biron bir xislatning (tipning) ana shu xislatga mos keladigan darajasida namoyon bo‘lishining sonlar bilan ifodalanadigan belgisiga ega bo‘ladi. Lekin bunday metodlar yordamida nari borsa kishining individualligi tavsiflanishini tasavvur qilish mumkin. Biroq kishi jalb etilgan ijtimoiy munosabatlarning "yaxlit birligida" shaxsni har tomonlama tavsiflab bo‘lmaydi. Inson shaxs tuzilishida biologik (tabiiy) va ijtimoiy omillarning o‘zaro nisbati masalasi hozirgi zamon psixologiyasida eng murakkab va munozarali masalalarda biridir. Psixologiyada shaxsda ikkita omil-biologik va ijtimoiy omillar ta‘siri ostida shakllangan ikkita asosiy kichik struktura borligini alohida ta‘kidlaydigan nazariya sezilarli o‘rin egallaydi.

Inson shaxsining o‘zi "endopsixik" va "ekzopsixik" tuzilishga bo‘linadi, degan fikr ham ilgari surildi. Shaxs tuzilishining kichik strukturasi sifatidagi "endopsixika" bamisoli kishining nerv-psixik tuzilishiga o‘xshash bo‘lgan inson shaxsining ichki mexanizmi kabi psixik qismlar va funksiyalarning o‘zaro ichki bog‘liqligini ifoda etadi. "Ekzopsixika"ning tashqi muhitga munosabati bilan, ya‘ni shaxs qanday bo‘lmasin, baribir munosabatga kirishishi mumkin bo‘lgan va shaxsga qarama-qarshi turadigan tuzilishlarning barchasiga nisbatan munosabati bilan belgilanadi. Inson shaxsning individualligida uning tabiiy, biologik tuzilishi o‘zining izini qoldiradi. Gap shaxsning tuzilishida biologik va ijtimoiy omillarni hisobga olish kerakmi, yo‘qligi haqida emas (ularni et‘iborga olish shart, albatta), balki ular o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni qanday tushunish kerakligi haqidadir. Ikkita omil nazariyasi ijtimoiy va biologik omillarni, muhit va biologik tuzilishni, "ekzopsixika"ni beixtiyor ravishda bir-biriga qarama-qarshi qo‘yadi. Lekin shaxsning shakllanishi va tuzilishidagi tabiiylik va ijtimoiylik masalasiga boshqacha yondashish ham mumkin. Shaxs o‘zi birikib ketgan jamiyat bilan, guruhlar bilan haqiqiy munosabatlar sistemasida sub‘yekt bo‘lib, individning organik gavdasi ichidagi allaqanday yopiq bo‘shliqdagina joylashgan bo‘lishi mumkin emas, balki u o‘zini individlararo munosabatlar bo‘shligida namoyon qiladi. Individ o‘z holicha emas, balki shaxslararo birgalikdagi harakatning xech bo‘lmaganda ikkita individ (amalda birlik, guruh, jamoa) jalb etiladigan jarayonlari ana shu o‘zaro birgalikdagi harakat ishtirokchilaridan har birining shaxsi namoyon bo‘lishi sifatida talqin qilinishi mumkin.

Xulosa: Shaxs bu jamiyatda shakllangan ijtimoiy munosabatlar va ongli faolloyat egasidir. Shaxslarda insonlar va ularning fikrlariga bo‘lgan munosabatlari shakllangan bo‘ladi. Tashqi ta‘sirlarga o‘zgacha ko‘z bilan qaraydi va u o‘zgarishlarni o‘zgartirishga harakat qiladi. Taassurotlar va kechinmalarga o‘z munosabatini bildiradi. Turli xil voqea hodisalarda o‘zini tuta oladi va unday holatlarga fikr bildirish qobiliyatiga ega bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ivanov I., Zufarova M. “Umumiy psixologiya”. O‘z.FMJ., 2008.
2. Davletshin M.G., Mavlonov M.M, To‘ychiyeva S.M. “Yosh va pedagogik psixologiya” T. TDPU, 2009.
3. Safayev N.S., Mirashirova N.A., Odilova N.G. “Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti”:- T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2013.
4. Xaydarov F.I., Xalilova N. “Umumiy psixologiya”. T.: “an va texnologiyalar” markazining bosmaxonasi : 2009.